

FRANSUZ TILINING GLOBAL AHAMIYATI

Norboyeva Zarnigor

*Samarqand davlat chet tillar instituti Roman-german tillari fakulteti
Fransuz filologiyasi kafedrasining 1-bosqich talabasi.*

Annotatsiya; Mazkur maqolada fransuz tilining butun dunyodagi global ahamiyati tahlil qilinadi. Ya'ni san'atda, ilm fanda, biznes sohasida, xalqaro aloqalardagi o'rni , turizm sohasidagi o'rni haqida qisqacha ma'lumotlar beriladi. Bundan tashqari , bu tilning kelib chiqish tarixi haqida ham qisqacha ma'lumotlar berilgan . Shuningdek, bu tilning O'zbekistondagi o'rni haqida ham alohida to'xtalib o'tilgan. Nafaqat O'zbekistonda balki , boshqa mamlakatlarda ham bu til o'ziga hos ahamiyatlarga ega . Hatto ko'pgina mamlakatlarda rasmiy til sifatida fransuz tilining foydalanishi ham aytib o'tilgan .

Fransuz tilining eng tarqalishiga sababchi bo'lgan vositalar ham aytib o'tilgan . Yana bu tilni o'rganuvchilar soni ham kundan kunga o'rtib borilayotgani va bu tilning rivojlanotganini bildiradi va maqolada va izohlanadi.

Kalit so'zlar; Rasmiy til, diplomatiya ,fransuz tili , biznes sohasi, turizm sohasi, ta'lim , ma'daniyat , tarjimonlar , xalqaro kompaniyalar ,fransuz tilining tarixi , xalqaro aloqalar, oliy o'quv yurtlari, Kokoro lingua platformasi ,Alliance Francaise .

Fransuz tili dunyo bo'ylab keng tarqalgan va muhim tillardan biridir. Fransiya, Belgiya, Shvetsariya, Kanada kabi mamlakatlarda rasmiy til sifatida ishlatiladi 270 milliondan ortiq odam fransuz tilida so'zlashadi va bu tilni o'rganish borasida bugungi kunda ko'plab imkoniyatlar yaratilgan. Bundan Fransiya gvianasi, Gaiti, Monako, Benin,Burkina Faso, Gabon, Gvineya, Kongo Demokratik Respublikasi, Kot d'Ivuar, Mali, Markaziy Afrika Respublikasi , Niger , Senegal ,Togo ,Chad davlatlarining rasmiy tili ; Belgiya Qiroligi, Shvetsariya Konfederatsiyasi, Kanada , Lyuksemburg , Andorra , Kamerun, Madakaskar , Burundi ,Ruanda , Komor orollari , Federativ Islom Respublikasi ,Jibuti , Vanuatu kabi davlatlarning rasmiy tillaridan biri hisoblanadi. Italiya va AQShning belgili hududlarida ham tarqalgan. Bu hududlardagi fransuz tilida so'zlashuvchilarning umumiyligi soni 100 millionni tashkil qiladi . Fransyaning o'zida esa 57 milliondan ortiq insonlar fransuz tiida so'zlashadi.

Fransuz tili diplomatiya , ilm-fan , madaniyat va san'at balki, biznes sohasida ham muhim ahamiyatga ega. Fransuz tili Rim imperiyasining lotin tilidan va Galliya tub aholisi tillarining o'zaro ta'siri jarayonida shakllangan . U Fransiya va uning sobiq mustamlakalarida tarqaldi. XVII asrlarda Fransiya o'z madaniy va siyosiy ta'siri kengaytirilganidan keyin, fransuz tili Yevropa va boshqa qit'alarda diplomatiya tili sifatida qo'llanila boshlandi. Bugungi kunda fransuz tili 29 ta mamlakatda rasmiy til sifatida ishlatiladi. Fransuz tili diplomatiyada ko'p asrlar davomida asosiy tildan biri bo'lib kelgan .BMT va Yevropa Ittifoqi kabi xalqaro tashkilotlar fransuz tilini rasmiy til sifatida qabul qilishgan .Diplomatik muzokaralar ,hujjatlar va xalqaro aloqalar ko'pincha fransuz tilida

olib boriladi, bu esa uni xalqaro aloqalar uchun juda muhimligini anglatadi. Fransuz tili ilmiy tadqiqot va san'atda ham keng qo'llaniladi. Fransiya ilm –fan ,texnologiya va tibbiyot sohalarida o'zining kashfiyotlari bilan dunyoga tanilgan .

Shuningdek, bu tilning grammatikasi va talaffuzi noyob xususiyatga ega .Fransuz tilining grammatic qoidalari murakkab bo'lib ,boshqa romantik tillardan farq qiladi . Talafuzi esa nazokat va ohangdorlik seziladi . Fransuz tili adabiyoti va san'ati dunyo madaniyatiga katta hissa qo'shgan . Bu til , dunyo adabiyotining eng yirik asarlari yaratilgan til hisoblanadi .Fransuz yozuvchilari ,rassomlari ,kinorejissyorlari xalqaro miqyosda taniqli . Fransuz tili , global biznes sohasida katta rol o'ynaydi . Fransiya Yevropaning yirik iqtisodiy kuchlaridan biri bo'lib , ko'plab xalqaro kompaniyalar va tashkilotlar bu tilni ishlatadi .Fransuz tilini bilish , Fransiya va boshqa fransuz tilida so'zlashuvchi mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda katta afzalik beradi .

Shuningdek, fransuz tili O'zbekistonda ham o'ziga xos o'rni ega, ayniqsa ta'lim , madaniyat va diplomatiya sohalarida . Fransuz tili ko'plab maktablarda va oliv o'quv yurtlarida chet tili sifatida o'rganiladi. Xalqaro fransuz maktablari va tashkilotlar orqali tilni o'rganish imkoniyatlari kengaymoqda . Bu tashkilotlardan biri "Alliance Francaise " , bu tashkilot O'zbekistonda birinchi bo'lib Toshkentda 2014-yilda tashkil etilgan . Keyingisi esa 2023 -yil 2-noyabr kuni Samarqandda tashkil etilishi to'g'risida hukumatlararo bitim imzolandi va hozirda markaz o'z faoliyatini yuritmoqda . Bu markaz fransuz tiini o'rgatish va madaniy almashinuvlarni rivojlantirishga xizmat qiladi . Bu tashkilot nafaqat O'zbekistonda balki butun dunyoda o'z faoliyatini yuritadi . Hozirda u global tarmoq bo'lib, 132 ta mamlakatda 800 ga yaqin markazga ega . Osiyoning o'zida Xitoy , Yaponiya , Janubiy Koreya , Hindiston , Qozog'iston kabi davlatlarda mavjud .Yana O'zbekistonda 12ta maktabgacha ta'lim tashkilotida bepul fransuz tilini o'qitish yo'lga qo'yilmoqda. Hozirgi kunda fransuz tilini o'rganish borasida turli xil platformalar ko'rib chiqilyapti va bulardan biri Kokoro lingua platformasıdır. Bu platforma 4-8 yoshdagि bolalarga chet tillarini o'rgatishga mo'ljallangan xalqaro onlayn ta'lim platforması bo'lib , bolalarni tabiiy va qiziqarli usullar bilan chet tillariga o'rgatadi . Darslar asosan , video orqali o'tkaziladi va bu jarayon bolalar o'ynab-o'rganish formatida tashkil etiladi . Kokoro langua platformasidan 2018-yildan beri dunyo bo'ylab 250 mingdan ortiq kishi foydalanib kelmoqda .

Bunga qo'shimcha qiladigan bo'lsak , bolalar bilan birgalikda o'qtuvchilarga ham e'tibor qaratilmoqda.

Ya'ni Fransiya elchixonasining Madaniyat va hamkorlik bo'limi O'zbekistondagi fransuz tili o'qituvchilari uchun malaka oshirish seminarlarini tashkil etishini ma'lum qilgan, yana talabalar va o'quvchilar uchun frankofon teatr festivallarini o'tkazishini ham aytib o'tgan .Bundan tashqari O'zbekiston va Fransiya o'rtasida iqtisodiy va siyosiy aloqalar mustahkam . Buning isboti sifatida ko'plab kelishuvlarni aytishimiz mumkin . Yana 1993 yil 27- oktabrda Parijda imzolangan O'zbekiston Respublikasi hukumati bilan Fransiya respublikasi hukumati o'rtasida madaniy ,ilmiy va texnikaviy hamkorlik to'g'risidagi bitim doirasida hamkorlikn davom ettirishdan o'zaro manfaatdorligini qayd

etgan. Bu kelishuvlarning har ikki davlatga ham foydali hisoblanadi. 2022-yil 23-novabrda Parijdagi Luvr muzeyida "O'zbekiston vohalari xazinasi . Karvon yo'li chorrahasida " nomli keng ko'lamli ko'rgazma tashkil etildi .Mazkur tadbir uchun O'zbekiston va fransiya mutaxassislari tomonidan 70ta buyum restavratsiya qilindi. Bu ko'rgazma O'zbekiston tarixiga fransuzlarning befarq emasligini bildiradi.

Fransuz tili bu aloqlarda muhim vosita hisoblanadi.O'zbekistonda ko'plab diplomatik xodimlar va tarjimonlar fransuz tilini bilishadi.Bunga yana qo'shimcha qilib oladigan bo'lsak,O'zbekistonda turizm sohasida fransuz tilining o'rni tobora oshib bormoqda .Ya'ni fransuz tili dunyoda keng tarqalgan tillardan biri bo'lib ,O'zbekistonga keladigan sayyoohlар orasida ham fransuz tilida so'zlovchilar ko'p. Ularni kutib olish va ularga xizmat ko'rsatishda fransuz tili muhim rol o'ynaydi . O'zbekistonda fransuz tii biladigan gidlar va tarjimonlar bo'lgan talab yuqori, chunki ular sayyoohlар bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilishlari muhimdir. O'zbekistoning turistik salohiyati haqida fransuz tilida tayyorlangan materiallar Fransiyada va fransuz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda turizmni targ'ib qilish imkoniyatini beradi.

Til asosan jamiyatdagi insonlarning asosiy aloqa vositasi hisoblanadi.Fransuz tili ham jamiyatda o'z o'rniga ega . Bu til dunyo bo'ylab ahamiyatli keng qo'llaniladigan tillardan biri sifatida xalqaro aloqlarda , madaniyatda , san'atda va iqtisodiyotda muhim o'rinni tutadi. Ushbu tilning boy tarixi ,Rim imperiyasi davridan boshlab shakllanib , Fransianing madaniy va siyosiy ta'siri tufayli global darajaga ko'tarilgan . Bugungi kunda fransuz tili nafaqat rasmiy til sifatida mamlakatlarda qo'llaniladi ,balki BMT va yevropa Ittifoqi kabi xalqaro tashkilotlardaham asosiy tillardan biri hisoblanadi. O'zbekiston misolida oladigan bo'lsak ,fransuz tilining ta'lim, diplomatiya va turizm sohalarida tobora ahamiyati oshib bormoqda . Fransiya bilan iqtisodiy va siyosiy aloqalar mustahkamlanayotgan bir paytda, ushbu tilni bilish O'zbekiston fuqarolari uchun katta imkoniyat eshigini ochadi .Xususan , turizm sohasida fransuz tili biladigan gidlar va tarjimonlarga talab yuqori bo'lib ,bu O'zbekistonning xalqaro sayyoohlар uchun yanada jozibador bo'lishiga xizmat qiladi. Chunki O'zbekistonga keladigan sayyoohlarning ko'pchilagini fransuzlar tashkil etadi. Fransuz tilini o'rganish nafaqat shaxsiy taraqqiyotga , balki mamlakatlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga hissa qo'shadi. Bu tilni bilish orqali O'zbekiston yoshlari xalqaro miqyosda o'z o'rnini topishi va Fransiya kabi taraqqiy etgan mamlakatlarni tajribasidan o'rnak olishi mumkin . Shu sababli , fransuz tilini o'rganishga qiziqishni oshirish va uni kengroq targ'ib qilish zamonaviy dunyoda juda muhim vazifadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. ``La Francophie et son avenir ``-bu kitob fransuz tilining kelajagi va global ahamiyati haqida.

2.``Le Francais dans le monde ``- Fransuz tilining dunyo miqyosidagi o'rnini o'rganayotgan ilmiy nashr .

3.'Global tilning o'rni va ahamiyati '' –muallifi :FLEDU.UZ tahririyati .Ushbu maqolada fransuz tili xalqaro aloqalar ,savdo va ilmiy hamkorlikda muhim rol o'ynashi ta'kidlangan.

4. Adiza O. I.,Boboqulov R.R., Karimova D.H., Qo'ldosheva N.B..''Lingvistika''

5.A.Mamatov .''Zamonaviy lingvistika ''.

6. Google .

7.Organisation Internetisional de la francophie.

8.Unesco .com.

9. uza.uz.

10.gazeta. uz.

11.uz.ambafrance.org.